

O‘ZBEK MULOQOT DISKURSIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI

Xursanov Nurislom Iskandarovich

Renessans ta’lim universiteti dots. v.b.,

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5714-2745

Annotatsiya: Maqola o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning muloqot jarayonidagi o‘rnini va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda frazeologik birliklar, ularning muloqotda qo‘llanishi, nutq madaniyatiga ta’siri hamda o‘zbek muloqot madaniyatining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Mualliflar frazeologik birliklarning kommunikativ funktsiyalarini, ular orqali ifodalangan madaniy va lingvistik xususiyatlarni batafsil ko‘rsatib berganlar. Maqolada, shuningdek, frazeologik birliklarning milliy o‘ziga xosligi va ularning boshqa tillar bilan o‘zaro aloqadorligi, o‘zbek tilshunos olimlar shu kungacha olib brogan tadqiqot hamda amaliy izlanishlari o‘rganilgan. Ushbu maqola o‘zbek tilshunosligi, nutq nazariyasi, lingvomadaniyatshunoslik, diskursologiya sohalarida izlanishlar olib boruvchi olimlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: diskurs, diskursologiya, nutq nazariyasi, lingvomadaniyatshunoslik, tilshunoslik, matn nazariyasi.

ИССЛЕДОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ КОММУНИКАТИВНОМ ДИСКУРСЕ

Хурсанов Нурислон Исхандарович

Университет образования Ренессанс доц. и.о.,

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,

E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5714-2745

Аннотация: Статья посвящена изучению места и значения фразеологизмов узбекского языка в процессе общения. В ходе исследования были проанализированы фразеологизмы, их использование в общении, влияние на культуру речи, а также особенности культуры общения узбекского языка. Авторы подробно показали коммуникативные функции фразеологизмов, выражаемые через них культурно-языковые особенности. В статье также рассматривается национальное своеобразие фразеологизмов и их взаимосвязь с другими языками, исследования и практические исследования, проводимые узбекскими лингвистами на сегодняшний день. Данная статья может служить важным ресурсом для ученых, проводящих исследования в области узбекского языкознания, теории речи, лингвокультурологии и дискурсоведения.

Ключевые слова: дискурс, дискурсология, теория речи, лингвистика, лингвистика, теория текста.

THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK COMMUNICATIVE DISCOURSE

Khursanov Nurilsom Iskandarovich

Renaissance University of Education

PhD, Associate Professor

E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5714-2745

Abstract: The article is devoted to the study of the place and importance of phraseological units in the Uzbek language in the process of communication. The study analyzed phraseological units, their use in communication, their impact on speech culture, and specific aspects of Uzbek communication culture. The authors have shown in detail the communicative functions of phraseological units, the cultural and linguistic features expressed through them. The article also examines the national identity of phraseological units and their interrelationship with other languages, research and

practical research conducted by Uzbek linguists to date. This article can serve as an important resource for scientists conducting research in the fields of Uzbek linguistics, speech theory, linguistic and cultural studies, and discourse studies.

Keywords: discourse, discourseology, speech theory, linguistics, linguistics, text theory.

KIRISH

Jahon tilshunosligida frazemalar masalasi, ularning struktur-semantik tuzilishidagi o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Frazelogizmlar tashiydigan leksik, semantik, pragmatik, stilistik, kognitiv ma'nolarni va ularning nutqda voqelanishini zamonaviy metodologik tamoyillardan foydalangan holda umumlashtirish, somatizmlar asosida shakllangan frazemalarning lingvostilistik, semantik-pragmatik xususiyatlari hamda ularning nutqdagi maqomi yuzasidan aniq nazariy xulosalar chiqarish, insonning olam haqidagi tasavvurlar tizimi sifatida frazeologiya masalasini diskursda faol qo'llash frazeologiyalar zahiridagi boy milliy madaniyat durdonalarini, tilning nodir namunalari jahon ahli e'tiboriga taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek frazeologiyasining asosiy muammolarini ilmiy jihatdan o'rganish ishlari boshlanganiga oltmish yildan oshdi. 50-yillargacha frazeologiya hali o'zbek tilshunosligi tarkibida mustaqil soha sifatida shakllanmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma'lumotlar, turg'un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o'zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda ko'zga tashlanadi. Bunday ishlar A.Fitrat, G'ozi Olim Yunusov, A.G'ulomov, U.Tursunov, A.K.Borovkov, F.Kamol, H.Zarif, V.Abdullaev, N.Mallaev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansub edi. Jumladan, A.Sa'diy, V.Abdullaev, N.Mallaev kabi adabiyotshunoslarning Alisher Navoiy asarlarida turg'un birikmalar, xalq iboralarining qo'llanilishiga oid fikrlari hozir ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda.

O'zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar XX asrning 50-yillari boshida yuzaga keldi. Ular qatoriga Sh.Rahmatullaev, Y.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Husainov kabilarning nomzodlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin [1, b. 16; 2, b. 19; 3, b. 18; 4, b. 18]. Bu ishlarda o'zbek tilidagi frazeologik birliklar akademik V.V.Vinogradovning struktural-semantik tasnifi asosida tahlil etildi, frazeologik birliklar frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar va frazeologik qo'shilmalarga ajratiladi. Shuningdek, bu ishlarda o'zbek tilida yakka so'zlardan iborat obrazli iboralar ham mavjudligi ta'kidlangan. Masalan, Sh.Rahmatullaevning nomzodlik dissertatsiyasida *so'fi, qiyomat, qiyomatda, oxiratda, latta, tuzlamoq, qovurmoq* singari ko'chma ma'nosi asl, boshlang'ich ma'nosidan uzoqlashib, o'zaro omonimlik darajasiga etgan yoki asl, to'g'ri ma'noda qo'llanishini deyarli yo'qotib, ko'chma ma'nodagina ishlatiladigan so'zlar frazeologik yoki idiomatik so'zlar deb atalgan edi [5, b. 52]. Sh.Rahmatullaev o'zining idiomatik so'zlar haqidagi fikrini yanada rivojlantirib, ishning yana bir o'rnida *ona karnay, odamovi, nonko'rlik, jonkuyar, jonkuyarlik, tilyog'lama, tilyog'lamachilik, uzunquloq, ikkiyuzlama, o'zboshimcha, o'zboshimchalik, sansalorlik, mish-mish, xaspo'shlamoq, bichib-to'qimoq, manmanlik* kabi til birliklarini etimologik jihatdan qo'shma so'zga teng idiomatik so'zlar deb tahlil qilgandi [6, b. 52].

O'zbek frazeologiyasiga oid bu ishlardagi eng katta nuqson shundaki, ularda tilimizning boy va serqirra frazeologik tizimiga akademik V.V.Vinogradov tasnifi nuqtai nazaridangina yondashiladi, turkiy tillarning, jumladan, o'zbek tilining o'z ichki tabiati inobatga olinmaydi. Y.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Husainovning ishlarida esa umumxalq frazeologizmlari bilan individual – muallif frazeologizmlari o'rtasidagi chegara aniq ko'zga tashlanmaydi, tadqiqotning sof lingvistik yo'nalishi bilan adabiyotshunoslik, badiiy-uslubiy yo'nalishi aralashtiriladi. Y.Pinxasov ishida *kulfat dengizi, g'am dengizi, baxt bayroqdori, buyuk paxtakor, baxt bo'stoni, baxtlar vodiysi, paxta ilmi, Zarafshon oltini, yangi daryolar o'lkasi* kabi obrazli birikmalar ham frazeologik birliklar qatoriga kiritiladi. Bu bilan frazeologik birliklarning obrazlilik tushunchasining doirasi nihoyatda kengaytiriladi. Bu ishlardagi ana shunday nuqsonlar

o'z vaqtida U.Tursunov [6], A.Koklyanova [7, b. 99-101] tomonidan ham alohida qayd etiladi.

Sh.Rahmatullaevning nomzodlik dissertatsiyasi o'zbek tilidagi fe'l frazemalarining grammatik xususiyatlarini o'rganish ishini boshlab bergan bo'lsa, olim 1966 yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasi, shu asosda e'lon qilingan "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" (1966) nomli monografiyasi bilan o'zbek tilidagi frazemalarni lug'aviy birlik sifatida o'rganishni asosladi. Bu ishda frazemalardagi ko'p ma'nolilik, ma'nodoshlik, variatsiya, antonimiya, shakldoshlik hodisalari boy faktik material (o'ttiz mingdan ortiq kartochka) tahlili asosida chuqur tadqiq etilib, frazemalarning lug'aviy birlik sifatidagi boshqa belgi-xususiyatlarini tekshirishga yo'l ochilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola mavzusini yoritishda umumfalsafiy metodlardan kuzatuv, analiz, sintez, tavsiflash, lingvistik metodlardan qiyoslash, komponent tahlil, pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sh.Rahmatullaevning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida frazeologik sinonimlar tahlilidan keyin chiqargan quyidagi ilmiy xulosasi har jihatdan asosli: "Har bir frazeologik sinonimga to'g'ri va to'liq xarakteristika berish uchun uni sinonimiya uyasi ichida olib, boshqa sinonimlar bilan qiyoslab o'rganish zarur. Bunda sinonimlar turli-tuman nuqtalardan tekshiriladi, ular orasidagi o'xshashlik ham, farqlar ham ta'kidlanadi. Sinonimlar orasida farqlar qancha oz bo'lsa, ularni nutqda bir-birining o'rnida ishlatishga imkoniyat ortadi va, aksincha bo'lsa, bunday imkoniyat ozayadi. Qay darajada bo'lmasin, sinonimlarni o'zaro almashtirishga yo'l qo'yuvchi kontekst mavjud bo'ladi. Bunday almashtirish bilan nimanidir yo'qotiladi, nimagadir ega bo'linadi. Xuddi ana shu "nimalardir" sinonim iboralarning har biriga tilda yashash huquqini beradi" [8, b. 131-145].

Ishning keyingi bobida frazeologik variatsiya hodisasi o'rganiladi. Bunda olim frazeologik variatsiyani frazeologik sinonimiyadan farqlashga alohida diqqat qiladi. Sh.Rahmatullaevning talqinicha, har qanday frazemani frazeologik variant deyish uchun quyidagi belgilar inobatga olinishi lozim:

“1) Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar turli-tuman leksik, grammatik o'zgartishlar tufayli biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'lishi, barchasi bir manbaga, bir asosga birlashuvi lozim.

2) Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar asosida ayni bir obraz yotishi lozim (bu obrazning variantlarga ko'ra so'nish-so'nmasligidan, qay darajada uqilishidan qat'iy nazar).

3) Variantlar deb qaraluvchi qurilishlar ayni bir ma'noni anglatishi lozim (ular o'zaro ma'noning kuchli-kuchsizligida, nutqiy, stilistik belgilarida farq qilishi mumkin).

4) O'zaro o'sib chiqqan variantlar qurilishida umumiy leksik komponent bo'lishi shart (ikki va undan ortiq iboraning qurilishida umumiy leksik komponentning mavjud bo'la olishidan qat'iy nazar)” [8, b. 131-145].

Umuman olganda, Sh.Rahmatullaev to'g'ri ta'kidlaganidek, “variantlashish tufayli bir ibora boshqa bir iboraga aylanmaydi, bir iboraga xos obraz birligi, ma'no birligi saqlanadi. Variantlashish tufayli yuz beradigan o'zgarishlar iboralarga xos yaxlitlikni emirmaydi, parchalamaydi, balki iboraga xos yaxlitlik doirasida, shu yaxlitlik yo'l qo'ygan darajada voqe bo'ladi. Aks holda yo ibora yo'qqa chiqadi, yoki boshqa bir ibora barpo qilinadi”.

Sh.Rahmatullaev monografiyasining yana bir xarakterli tomoni unda frazeologik omonimlarni frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalardan farqlashga intilishdir. Olimning talqiniga ko'ra, o'zaro frazeologik omonimlar va frazeologik paronimlar, shuningdek, frazeologik omoformalar va frazeologik paraformalar bir-biriga shu qadar o'xshash bo'ladiki, ulardan biri o'rniga ikkinchisini xato ishlatib yuborish mumkin. Agar iboralar o'zaro tarkibidagi biror so'z-komponenti bilangina farq qilsa, ularni frazeologik paronimlar deb yuritish mumkin bo'ladi. Masalan, *ko'ngl(i)ni*

ko'tarmoq - ko'ngl(i) ko'tarildi va ko'ngl(i)ni tog'day ko'tarmoq - ko'ngl(i) tog'day ko'tarildi kabi. Agar ba'zi iboralar biri ikkinchisida yo'q grammatik shakllanish sistemasiga ega bo'lsa, frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin bo'ladi. Masalan, *jon(i) kirmoq - jon(i)ni kirgizmoq* va *jon kirmoq - jon kirgizmoq* kabilar.

Ko'rinadiki, Sh.Rahmatullaevning tadqiqotlari o'zbek frazeologiyasining shakllanishi va rivojida alohida qimmatga egadir.

G'.Salomov o'zbek tilshunosligi uchun g'oyat dolzarb muammolardan biri frazemalar tarjimasi bilan maxsus shug'ullandi, shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi [9, b. 31], bir necha monografik tadqiqotlar yaratdi. Olim o'z ishlarida "frazeologik ibora", "idioma", "ibora" kabi atamalardan sinonim sifatida foydalanadi, bunday til birliklarini maqol, matallardan farqlashga intiladi.

G'.Salomovning ta'kidlashicha, "Maqol – xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqea-hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlari bilan muomala jarayonida tug'iladi. Xalq maqoli - xalqning mulkidir. Maqol qayg'usi – xalq qayg'usi, maqol g'azabi – xalq g'azabi, maqol kulgisi – xalq kulgisi va maqol kinoyasi – xalq kinoyasi demakdir. Maqol ishlatmagan birona xalq, maqol ijod qilmagan birona til yo'q. "Dunyoda tilsiz xalq bo'lmagani kabi, maqolsiz til ham yo'q", deb ta'kidlaydi tatar yozuvchisi Nohiy Esanbat" [9, b. 31].

Agar maqol – turmushda sinalgan, ma'lum ezgu, tugal, umumiy ma'no anglatuvchi, ixcham bir shakldagi xalq hikmati bo'lsa, "matal narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan ibora va nutq oborotlaridir. Matal so'zlovchining o'z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal kishining xotirasida osonlik bilan saqlanib qoladi".

"Idioma – shaklan bo'laklarga ajralmaydigan, maxraji birikma tarkibidagi so'zlarning to'g'ri va konkret ma'nosi bilan talqin qilinmaydigan, ko'chma ma'no anglatuvchi barqaror so'z birikmasidir".

Olim o'zining "Tarjima nazariyasi asoslari" asarida maqol, matal va idiomaning farqlarini keltiradi. Bu ishda olim "frazeologizm" atamasining mazmunini nihoyatda keng tushunadi, uning tarkibiga maqol, matal va idiomalar mazmunini kiritadi: "Frazeologizm (maqol, matal va idiomalar)ning ma'nosi kontekst ichida ochiladi. Binobarin, muayyan iboraning ma'nosini ochish uchun uni kontekst ichida olib qarash lozim. To'g'ri, ikki yoki bir nechta tilda ham shaklan, ham mazmunan, ham ma'noviy tarafdin aynan muvofiq keladigan mutlaq ekvivalentlar ham topiladi".

Y.D.Pinxasov o'z metodik qo'llanmasida o'zbek tili frazeologizmlarini tasnif qilishda V.V.Vinogradov tasnifini asosga olib, ularni uchga (frazeologik chatishma, frazeologik birlashma, frazeologik qo'shilmalarga) bo'ladi. Lekin farq shundaki, Y.D.Pinxasov frazeologik birlashma mazmunini juda kengaytirib, uning doirasiga obrazli iboralar, metaforik ifodalar, maqollar, aforizmlar, terminologik xarakterdagi iboralar, shtamplashgan iboralar va laqablar kabi barqaror so'z birikmalarini kiritadi [10, b. 55-65]. Shu asosda olim frazeologik birikmalarga quyidagicha ta'rif beradi: "Komponentlari bir qolipga kirib, ko'p zamonlar barqaror bo'lgan, ko'pincha ko'chma, ba'zan to'g'ri ma'noli bo'lib, gapda butunligicha bir vazifani bajaradigan so'zlar bog'lanmasiga frazeologik birliklar deyiladi" [11, b. 109].

M.Husainov esa o'z nomzodlik dissertatsiyasida va shu asosda e'lon qilingan maqolalarida frazeologik birikmalarni yuqorida ta'kidlangan uch tipdan tashqari, to'rtinchi tip - idiomatik so'zlarga ham ajratadi. Idiomatik so'zlar deganda olim metaforik ma'noga ega bo'lgan alohida so'zlar (*qizarmoq, qip-qizil bo'lib ketmoq, qisilmoq, siqilmoq, qizishmoq, yorilmoq* kabilar) ni tushunadi. Shuningdek, M.Husainov o'zbek frazeologiyasi doirasiga maqol, matal, topishmoq, hikmatli so'z va aforizmlar, ekspressiv (ma'nodor) so'zlar (*aylanib ketay, sadag'ang bo'lay, onang o'rgilsin* kabilar) ni ham kiritgan edi [12, b. 10].

Ma'lumki, o'zbek frazeologiyasining nazariy masalalari dastlab E.D.Polivanov ishlarida o'rta qo'yilgan edi. U rus va ayrim sharq tillari frazeologiyasini o'rgandi va shu asosda frazeologiyani mustaqil lingvistik soha sifatida ajratish haqida fikr bildirdi.

E.D.Polivanovning ta'kidlashicha, yangi shakllanadigan frazeologiya sohasi leksikologiyaga nisbatan xuddi sintaksis morfologiyaga nisbatan egallagan o'rinda bo'lishi lozim. "...Sintaksisga teng keluvchi yangi sohaning shakllanishiga ehtiyoj sezilmoqda, - deb yozgan edi E.D.Polivanov, - lekin sintaksis so'z birikmalarining umumiy tiplarini, xususiyatlarini o'rgansa, yangi shakllanadigan soha leksemalarning o'zaro munosabati asosida yuzaga keladigan birikmalarining konkret, individual (leksik) ma'no xususiyatlari bilan shug'ullanadi" [13, b. 61-, 119]. E.D.Polivanov yangi shakllanadigan sohani frazeologiya yoki idiomatika deb nomlagan edi [14, b. 60-61].

Mustaqillik yillarida o'zbek frazeologiyasining nazariy masalalarini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Jumladan, tadqiqotchi Q.Hakimov sodda gap qolipli *joni kirib qoldi, boshi ko'kka etdi, yuragi orqasiga tortib ketdi, boshi osmonga etdi, yuragi shuvillab ketdi, og'zi ochilib qoldi, yuragi qoq yorilayozdi* singari frazeologizmlarni komponent tahlil metodi asosida o'rgandi, shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi [15, b. 24].

Q.Hakimovning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, "frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir. Uning tarkibidagi bo'laklar o'rtasida shakllangan sintaktik munosabat o'z qimmatini saqlagan, o'zgarishga uchramagan holatda qoladi. Bunda sodda gap qolipli frazeologizmlar garchi ma'no jihatidan til birligi holiga kelib qolgan bo'lsa ham, sintaktik jihatdan sodda gaplik qimmatini saqlaydi. U nutq tarkibida gap sifatida olinib, boshqa bo'laklar unga moslashtiriladi va uning biror bo'lagiga bog'lab qo'llanadi" [15, b. 24].

Frazeologik birliklar frazeologik chatishma (*bosh tortib* kabi), frazeologik qo'shilma (*erga qaradi, boshini ko'tardi* kabi) va frazeologik birlashmalar (*boshini olib ketdi* kabi)dan tashqari frazeologik iboralar ham ajratilgan. "Frazeologik iboralar ma'no va funksiya jihatidan turli-tuman xususiyatga ega: kishilar xarakterini, predmet, holat, hodisa xossalarini ifodalaydi, badiiy tilda stilistik bo'yoq berish, bo'rttirish, kuchaytirish vositalari uchun qo'llanadi, aforizmlar, qochirimlar shaklida uchraydi, yozuvchilar tomonidan ham frazeologik iboralar yaratiladi. Ba'zi bir iboralarning ekvivalenti (ya'ni

grammatik, semantik strukturasi yoki stilistik xususiyati bir-biriga o'xshash bo'lganlari) boshqa tillarda ham uchrashi mumkin.

Frazeologiyaning tekshirish obyekti hali konkret belgilangan emas, uning doirasiga xalq maqol va matallari ham kiritib kelinmoqda". Keyingi yillarda folklorshunoslik va tilshunoslikda maqol, matal, hikmatli so'z va aforizmlar paremlar deb yuritiladi: "Paremlarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti va ma'nolarini o'rganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Paremiologiya tilda turli xarakterdagi barcha iboralarni o'rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganadi. Bu ularning o'zaro farqlovchi tomonidir. O'rganish obyektining birligi, ya'ni bir necha so'zdan tuzilgan barqaror birikmalarni tekshirish ularning o'xshash, umumiy tomonlaridir. Frazeologiyaning fan sifatida shakllanishida paremiologiyaning roli katta" [16, b. 212].

Ba'zi ishlarda frazeologik birliklarni erkin so'z birikmalari, qo'shma so'zlar singari tilning boshqa birliklaridan farqlashga intilish hollari seziladi [17, b. 112]. Lekin bu ishlarda ham to'g'ri, haqqoniy fikr-mulohazalar bilan bir qatorda ayrim chalkash fikrlar ham aytiladi. Masalan, A.Abdullaev tilimizda mavjud bo'lgan *qo'lga olmoq*, *qo'l qo'ymoq*, *ovoz bermoq*, *bola ko'rmoq*, *tildan qolmoq*, *ko'zdan yo'qolmoq*, *ishdan chiqmoq*, *tilga olmoq*, *ovozga qo'ymoq* kabi frazeologik birliklarni "boshqaruv asosida yuzaga kelgan birikmalar" deb hisoblaydi. Muallifning fikricha, ular davr o'tishi bilan so'z holiga kelib, bir tushunchani ifodalovchi vosita bo'lib qolgan, bunday birikmalarda sintaktik munosabat yo'qolganligi tufayli bular sintaktik birikma doirasidan ham chiqib qolgan. Yoki "O'zbek tili grammatikasi"da erkin birikmalarning turg'un birikma (frazema)lardan farqli tomonlari besh guruhga ajratib ko'rsatilgan. Asarda to'g'ri ta'kidlanganidek, "erkin birikmani tashkil qilgan mucha (komponent)lar alohida-alohida olganda ham o'z leksik ma'nolarini saqlaydi va boshqa so'zlar bilan bog'lanib, birikma hosil qilishda ishtirok etaveradi; turg'un birikmada bunday xususiyat yo'q, u butunligicha yaxlit leksik birlik hisoblanadi, so'zlarni ayrim-ayrim olganda o'sha leksik

ma'no yo'qoladi" [18, b. 24-25]. Ammo bu asarda aytilgan "turg'un birikmalarni (frazemalarni) urug'dosh bo'lmagan boshqa bir tilga tarjima qilish odatda mumkin bo'lmaydi", "turg'un birikmada esa so'zlarning birikuvi doirasi cheklangan bo'ladi, unga so'z qo'shish yoki uning sostavidagi so'zlarning birortasini chiqarib tashlash ma'noga jiddiy putur etkazmog'i mumkin" kabi fikrlar frazeologiya fanining hozirgi taraqqiyot darajasi nuqtai nazaridan bahs-munozaralidir. Chunki frazemalarni istagan tilga tarjima qilishning xilma-xil usullari mavjudligi, frazemalarning tarkibida xilma-xil okkazonal o'zgarishlarni amalga oshirish tiplari frazeologiya, qiyosiy tarjimashunoslik va frazeologik uslubiyat fanlari tomonidan ishlab chiqilmoqda [19, b. 11-100; 20, b. 8-38; 21, b. 4-18].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek muloqot diskursidagi frazeologizmlarning til birligi sifatidagi leksik, semantik, sintaktik o'rnini belgilash, ushbu til birliklari va boshqa birliklardan o'rtasidagi farqlanish chegaralarini belgilash masalasi yarim asrdan ko'proq vaqt davomida tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelayotgan masalalardan hisoblansa-da, hali-hanuz turg'un bir fikr-mulohazalarga kelinmagan. Bunga frazeologik birliklarning nafaqat, leksik, semantik, sintaktik balki pragmatik, kognitiv, funksional xususiyatlariga ko'ra aniq belgilangan lingvistik qoliplarga tushmasligi sababdir. Ushbu til birliklarining o'zbek muloqot diskursida adresant va adresat o'rtasidagi kommunikativ vaziyatlarni voqealantirish uchun keng funksional imkoniyatlarga ega ekanligi hamda verbal fikr ifodasining ajralmas uzvi ekanligi ularni o'zbek diskursidagi muhim tadqiqot obektlaridan biriga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рахматуллаев Ш.У. Основные грамматические особенности образных глагольных фразеологических единиц современного узбекского языка. АКД. – М.: 1952. – 16 с.
2. Пинхасов Я.Д. Фразеологические выражения в языке произведений Хаида Алимджана. АКД. – Ташкент, 1953. – 19 с.

3. Шамаксудов А.Ш. Язык сатиры Муками (лексика и фразеология). АКД. – Ташкент, 1956. – 18 с.
4. Хусаинов М. Фразеология прозы писательницы Айдын. АКД. – Самарканд, 1959. – 18 с.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi zamon o'zbek tilidagi obrazli fe'l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. – Moskva, 1952. – B. 52.
6. Турсунов У.Т. Состояние и задачи изучения фразеологии узбекского языка // Вопросы фразеологии, Труды СамГУ, новая серия, выпуск 106. – Самарканд, 1961.
7. Коклянова А.А. О границах фразеологии тюркских языков // Вопросы фразеологии, Труды СамГУ, новая серия, выпуск 106. – Самарканд, 1961. 99-101 с.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966. – B. 131-145.
9. Салямов Г.Т. Лексико-фразеологические вопросы художественного перевода (принципы перевода пословиц, поговорок и идиом с русского на узбекский язык). АКД. – Ташкент: 1964. – 31 с.
10. Pinxasov Ya.D. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya va frazeologiya). – Toshkent: O'qituvchi, 1969. – B. 55-65.
11. Pinxasov Ya.D. O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi bir masalalariga doir // Frazeologiya masalalari, SamDU asarlari, yangi seriya, 106-chiqishi. – Samarqand, 1961. – B. 109.
12. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. - Toshkent, O'qituvchi, 1984. – B. 10.
13. Поливанов Е.Д. За марксистское языкознание. – М.: 1931. 61-,119 с.
14. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – Л.: 1928. 60-61 с.

15. Hakimov Q. O'zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi. NDA. – Toshkent: 1994. – B. 24.
16. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent, 1991. – B. 212
17. Abdullayev A. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida so'z birikmalarini o'rganish masalasiga doir // Alisher Navoiy nomidagi O'zDU asarlari, yangi seriya, 77-chiqishi. – Samarqand, 1958. – B. 112
18. O'zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, 2-tom. – Toshkent, Fan, 1976. – B. 24-25.
19. Функционирование фразеологических единиц в художественном и публицистическом тексте. Межвузовский сборник научных трудов. – Челябинск, 1984. 11-100 с.
20. Мусаев К. Перевод лексических и фразеологических единиц как проблема частной теории перевода (на материале переводов с русского языка на узбекский). АДД. – Тбилиси, 1988. – 8-38 с.
21. Abdullayev Sh.D. Tarjima asarlarda frazeologizmlar semantikasi (T.Qayipbergenov asarlarining o'zbekcha tarjimasi asosida). NDA. – Toshkent, 2006. – B. 4-18.